

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDADA AGRESSIVLIKNING NAMOYON BO'LISHI

Sherdanaqulova Sarvinoz To'lqin qizi

Surxondaryo viloyati Termiz shahar 24-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Maqolada bolalardagi agressivlilik muommosi va uning dolzarbliji, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan agressiv xulq-atvorning o'rganilishi, ilm-fanga kiritgan yangiliklari va tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *kichik maktab yoshi, agressivlilik, agressiv xulq-atvor, xorijiy va mahalliy olimlar, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixokorrektsiya, frustratsiya, ijtimoiylashuv, nizo.*

KIRISH

Hozirgi paytda agressivlilik muommosi psixologiyadagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Insondag'i agressivlik holati har qanday sabablarga bog'liq bo'lib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprofilaktikasi bo'yicha xorijda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan va ulardan amaliyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va maktab psixologlari so'ngi paytlarda bolalarda agressivlilik juda ko'payib ketganini ta'kidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi. Ya'ni har qanday qiyin vaziyatda bolaning yosh krizisi muommolarga to'la bo'ladi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarkibida kichik maktab yoshi o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarini yaxshilash, axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ish jarayonida ilmiy adabiyotlarni fanlararo nazariy tahlil qilish, eksperimental ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullari kabi ilmiy tadqiqot usullari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Agar biz g'arb kontseptsiyalarining xilma-xilligini tahlil qiladigan bo'lsak, ulardan eng muhimlaridan uchtasini ajratishimiz mumkin. Birinchisiga, agressivlik shaxsning tug'ma, instinktiv mulki sifatida qaraladigan nazariyalar kiradi (bunga psixoanalistik nazariyalar kiradi). Ikkinchisi, agressiyani frustratsiyaga bo'lgan xattiharakat sifatida tasvirlaydi. Uchinchisi, agressivlikni o'rganish natijasida shakllanadigan xulq-atvorning xususiyati deb hisoblaydigan tushunchalardan iborat (xulq -atvor nazariyalari).

L.Berkovitz "frustratsiya-agressiya" kontseptual sxemasiga uchta muhim o'zgartirish kiritadi: a) frustratsiya agressiv harakatlarda amalga oshmaydi, lekin unga tayyorgarlikni rag'batlantiradi; b) hattoki tayyor holda bo'lsa ham, agressiya tegishli shartlarsiz sodir bo'lmaydi; v) frustratsion vaziyatlardan agressiv harakatlar yordamida chiqib ketish individda bunday harakatlarning odatlanishiga tarbiyalaydi.

Agressiv reaktsiyalarning namoyon bo'lish kuchida ham gender farqlari mavjud. O'g'il bolalar jismoniy tajovuz reaktsiyalarining ustunligi bilan ajralib turadi, yoshi kattaroq qizlar esa tajovuzni ifodalashning bilvosita usullariga ko'proq murojaat qilishadi: og'zaki, bilvosita va negativizm. Ehtimol, bu o'g'il bolalarning tajovuzkorligi "tashqi tomonga", qizlar esa "ichkariga" qaratilganligi bilan bog'liqdir.

I.A.Furmanov bolalar agressivlilagini tushuntirishning turli uslubiy va kontseptual yondashuvlari, bolaning xatti-harakatlarida tajovuzning paydo bo'lishini rag'batlantiruvchi yoki qo'zg'atuvchi psixologik va ijtimoiy omillar, uni psixodiagnostikalashning bevosita va yordamchi usullari, shuningdek, psixo-ijtimoiy korreksiya yo'nalishlarini aniq ochib bergen. Uning ta'kidlashicha, bolalar o'rtasidagi konfliktlar narsalar va o'yinchoqlarni egallash bilan bog'liq bu chegaralar kesishganda paydo bo'ladi, ya'ni bir nechta bolalar boshqa bolalarning o'yinchoqlarini olish orqali o'z chegaralarini kengaytirishga harakat qiladi. Buni 2, 4 va 7 yoshli uchta o'g'il bolani uzoq muddatli kuzatish natijalari tasdiqlaydi. Agressiv xulq-atvor bilan bog'liq eng ko'p nizolar kichik, katta va o'rta bola o'rtasida, kichiklar va katta yoshlilar o'rtasida esa qarama -qarshilik minimal bo'lganligi kuzatildi. Nizolar faqat ba'zi o'yinchoqlarga egalik qilish uchun paydo bo'lganiga e'tibor qaratildi.

Ajablanarlisi shundaki, o'yinchoqlar borligida ular o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q edi.

E.Fromm agressiyani keng ma'noda ta'kidlab o'tadi – bunda faqatgina odam va hayvonatlarga emas, balki jonsiz predmetlarga ham ziyon keltirishni agressiya dep hisoblagan.

Ongni manipulyatsiya qilib, agressiv xulq-atvorga undashda ommaviy axborot vositalarining ta'siri B.Kreyxi tadqiqotida o'z aksini topgan.

S.A.Travina tadqiqoti natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida agressiv harakatlarning oldini olishda o'qituvchilar va maktab psixologining o'z-aro ta'sirida harakatlarni muvofiqlashtirish jarayonining samaradorligiga erishgan.

Y.A. Bashkatova o'z tadqiqoti jarayonida kommunikativ universal ta'limga harakatlari boshlang'ich maktabning 2-3 sinf o'quvchilarini tajovuzkorligiga ta'sir qilishini aniqlagan. Ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ universal ta'limga harakatlari past darajada va agressivlilik yuqori darajada bo'lgan, shuningdek kommunikativ yo'nalish jihatidan ham frustratsiya holati yo'nalishlari va reaktsiya turlarida farq qilgan. Shuning uchun faqat korreksion guruhni emas, balki barcha sinfdoshlarni rivojlantirish va tuzatish ishlariga jalb qilish kerak. Ota ona

munosabatlarining avtoritar turi kichik maktab yoshidagi bolalarda umumiy kommunikativ ta'lif harakatlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi va atrofidagilariga nisbatab aggressiv muloqati isbotlangan. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar bilan ishslashni rivojlantirishda ota-onalar ham ishtirok etishi kerak. 2-3sinf o'quvchilarining kommunikativ universal ta'lif harakatlarini rivojlantirish bo'yicha samarali ishslash uchun zarur shart-sharoitlar aniqlandi. Agressivlikda gender farqlari borligi ham aniqlangan. Agressiv o'g'il bolalarga past darajali verbal intellekt, yuqori darajada vaziyattan tashvishlanishi, ishonchsiz va beparvoligi bilan ajralib turadi. Agressiv qizlar uchun qattiqxo'llik va ishonchsizlik xos.

F.F.Rasulova o'z tadqiqotida kichik, o'rta, katta o'smirlarga xos aggressiv mayllarning tabaqlashtirilgan ichki evolyutsiyasi hamda agressiya shakllari o'rtasidagi bog'liqni jinsga ko'ra tafovutlanishining xulq-atvor va ishtimoiy munosabatlarini shartlovchi psixologik omillarini, ota-onal bilan bola munosabatlarida qabul qilish va kooperatsiya tarbiya usubi aggressiyaning pasayishini ta'minlovchi psixologik omillar ekanligini, aggressiv o'smirlar xulqatvorini psixoprofilaktika qilish va psixokorreksiyalash maqsadida "Xulq-atvorni modifikatsiyalash treningi" psixologik trening dasturini, aggressiyaga moyil o'smirlar xulq-atvorni psixoprofilaktika qilish va psixokorreksiyalash maqsadida ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorlikda samarali ish olib borishining algoritmini ishlab chiqqan. Uning tadqiqoti natijasida mahalliy sharoitda o'smirlar aggressiv xulq-atvorining yosh, jins va individual psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir psixodiagnostik metodikalarni tizimlashtirishga va o'smirlardagi aggressiv xulqatvorni korrektsiya qilish imlonini beruvchi ijtomoiy trening dasturi ilmiy asoslangan, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan hamda xalq ta'limi muassasalari amaliyotiga tatbiq etilishi tavsiya etilgan.

XULOSA

G'azablanish, qo'rqish va shu kabi boshqa emotsiyalar insonni o'rab turgan sharoitga moslashish vazifasini bajaradi. G'azablanish odamlarda ham hayvonlar kabi to'siqlarni yo'qotishga, maqsadiga erishishiga, o'zini himoya qilishiga yordam beradi. Shuning uchun har qanday aggressiyani ko'rsatish qonun buzarlik hisoblanmaydi. Bolalar hayotida aggressiv xulq-atvor tez-tez uchrab turadi.

Ulg'ayib kelayotgan bolalarda psixologik holatlar kechishiga vaqtida e'tibor berilmasa sa'lbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Xorijlik olimlar L.Berkovitz frustratsiya va aggressiyaning bir-biriga bog'liqligini, I.A. Furmanov bolalar aggressivliligini, E. Fromm aggressiyaga keng ma'noda ta'rif keltirgani, K.S.Shalaginova kichik maktab o'quvchilarida tizimli psixologik yordam ko'rsatishni, Y.A. Bashkatova turli darajadagi aggressiv kichik maktab o'quvchilarida kommunikativ universal ta'lif harakatlarini rivojlantirishni,

I.F. Nurmuxametova kichik maktab o'quvchilarida agressivlik pasayishining psixologik-pedagogik sharoitlarini, E.L. Golenisheva kichik maktab yoshi o'quvchilarida agressivlikning ijtimoiy-psixologik omillarini, S.A. Travina kichik maktab o'quvchilarining aggressiv xulq-atvor profilaktikasida psixolog va o'qituvchilarning o'z-aro ta'sirini, E.I. Berejkova boshlang'ich maktab o'quvchisining aggressivligiga ijtimoiy aggressiyaning ta'siri etishini o'rgangan. O'zbekistonlik olimlardan F.F. Rasulova o'smirlarda aggressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini tadqiq etgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkin kichik maktab yoshi davridagi aggressivlik va aggressiv xulq-atvor mamlakatimizda ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rganilishi kerak bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Башкатова.Ю.А.Развитие коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников с разным уровнем агрессивности. Автореф. дисс. кандидата психологических наук: 19.00.07/ Ярославль-2014. С-6
2. Бютнер К. Жить с агрессивными детьми.– М., 1991.– С. 56
3. Фурманов.И.А. “Детская агрессивность: Пиходиагностика и коррекция”–
4. Минск: Ильин В.П., 1996. –С.12
5. Голенищева Е.Л. Социально - психологические факторы агрессивности младших школьников. Автореф. дисс.. кандидата психологических наук: 19.00.13/ Санкт- Петербург-2005. С-5
6. Крейхи Б. Социальная психология агрессии. – М.: Питер, 2003. – С.56.
7. Невенчанный. В.С. “Понятие агрессивного поведения в современной психологии”, Наука и современность. – 2011. – №10–1. – с. 300